

ERTAK VA ADABIY ERTAKLAR QIYOSI

Isaqova Mohlaroy

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili
yo'nalishi 3-kurs 23.87- guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada folklor janrlaridan biri bòlgan ertak va adabiy ertaklar qiyoslanib òrganib chiqiladi. Ertak va adabiy ertaklarning farqli xususiyatlari kòrib chiqiladi.

Kalit so'zlar: folklor, ertak, adabiy ertak, xalq ertagi turlari, adabiy ertak xususiyatlari.

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyibg'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta'minlaydi. Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas boglanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yoldosh bolib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sugorilgan bolib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda oziga dush-man bolgan kuchlarga qarshi kurashda doimo golib chiqadi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi.

Xalq ertaklarining xususiyatlari

Xalq ertaklari – xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lib, aniq muallifga ega emas. Ular asrlar davomida og‘zaki ravishda shakllanib, sayqallanib kelgan.

Asosiy belgilar:

Muallifsiz (anonim) yaratiladi

Og‘zaki shaklda tarqaladi

Variantlarga boy bo‘ladi

Oddiy va xalqona til bilan yoziladi

Sehrlil, fantastik unsurlar ustun bo‘ladi

Misol:

“Zumrad va Qimmat” ertagida yaxshilik va yomonlik qarama-qarshiligi orqali axloqiy xulosa beriladi. Har xil hududlarda bu ertakning turli variantlari mavjud.

Adabiy ertaklar. Ertaklarning yaratilishiga kòra bir turi bu adabiy ertaklardir. Bilamizki, ma’lum yozuvchi tomonidan xalq ertaklari asosida yaratilgan asar adabiy ertak deyiladi. Yozuvchi adabiy ertakni yaratishda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga mos bo‘lgan xalq ertagini tanlab oladi va unda aks ettirilgan voqea-hodisalarni qayta ishlab, o‘zi yashab turgan davr talabi asosida yangi asar ijod etadi. Adabiy ertaklarning paydo bo‘lishi yangi davr, yangi zamon kishilarining ma’naviy ehtiyoji, yangicha estetik tafakkuri bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Ulug‘ adabiy tanqidchi V.G. Belinskiy ta’kidlaganidek, har bir davrning o‘z g‘oyasi va shunga mos ifodaviy shakli mavjud bo‘ladi, ya’ni har bir davr o‘z mazmun va shakl birligiga egadir. Adabiy ertaklarda ma’lum xalqning urf-odatlarini, o‘doba-xloqi, ota-bobolarning hikmatli so‘zlari, kishilar dunyoqarashining aks ettirilishi dunyo xalqlari bolalarini o‘zaro ma’naviy jihatdan yaqinlashtiradi.

Adabiy ertaklarda aks ettirilgan voqealarni ijodkor o‘zi yashab turgan davr asosida ijod etar ekan, bolalarni davr talabiga javob beradigan salohiyatli etib tarbiyalashga o‘z

hissasini qo‘shgan bo‘ladi. Ertaklarda milliylikni saqlab qolgan adib millat bolalarini milliy tarbiya tizimida tarbiyalaydi.

Adabiy ertaklarning xususiyatlari

Adabiy ertaklar – muayyan yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy asarlardir. Ular ko‘pincha xalq ertaklari asosida yaratiladi, lekin muallifning individual uslubi bilan boyitiladi.

Asosiy belgilar:

Aniq muallifga ega

Yozma adabiyot mahsuli

Bitta variantda mavjud

Badiiy tasvir vositalari boy

Zamonaviy mavzular ham aks etadi

Misol:

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Quvnoq hayvonlar” ertagi xalq ertaklari ruhida yozilgan bo‘lsa-da, unda zamonaviy tarbiya va ijtimoiy g‘oyalar aks etadi.

A.S. Pushkinning “Baliqchi va baliq haqida ertak” asari ham xalq motivlari asosida yaratilgan adabiy ertakdir.

Xalq ertaklarida obrazlar ko‘proq umumlashgan bo‘lsa, adabiy ertaklarda obrazlar individuallashtiriladi. Masalan, xalq ertaklaridagi “yaxshi qiz” yoki “yomon kampir” tipik obraz bo‘lsa, adabiy ertaklarda qahramonning ichki kechinmalari ham ochib beriladi.

Shuningdek, adabiy ertaklarda zamonaviy muammolar ham yoritiladi. Masalan, ilmfan, texnika, jamiyatdagi o‘zgarishlar adabiy ertak mazmuniga kirib keladi.

Xulosa

Xalq ertaklari va adabiy ertaklar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, adabiy ertaklar ko‘pincha xalq ertaklari asosida yaratiladi. Xalq ertaklari milliy ruh va qadriyatlarni saqlab qolsa, adabiy ertaklar ularni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantiradi. Shu sababli, har ikkala tur ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1990.
2. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981.
3. To‘xtaboyev X. Quvnoq hayvonlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.
4. Pushkin A. S. Ertaklar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984.
5. Valiyev S., Qodirov M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.